



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING
ROLI VA UNING TURMUSH FAROVONLIGIGA TA’SIRI**

**РОЛЬ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ИННОВАЦИОННОЙ
ЭКОНОМИКЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА БЛАГОСОСТОЯНИЕ**

**THE ROLE OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN THE CONDITIONS OF AN
INNOVATIVE ECONOMY AND ITS IMPACT ON THE WELL-BEING OF LIFE**

Raximova Lola Shavkatovna

Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti Menejment va marketing kafedrası assistenti

Annotatsiya

Maqolada innovatsion iqtisodiy rivojlanish jarayonida ayollar tadbirkorligining o‘rni va roli, shuningdek, ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishning barqaror rivojlanish bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy asoslari o‘rganiladi. Tadqiqot ishida ayollarni kambag‘allikdan chiqarish, ularni raqamli va ekologik jihatdan barqaror bo‘lgan iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari, ekologik toza mahsulot yetishtirish va innovatsion biznes-loyihalarda ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Shu orqali ayollar bandligini oshirish, ularning iqtisodiy faolligini kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, innovatsion iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy faollik, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish.

В статье исследуются роль и роль женского предпринимательства в инновационном экономическом развитии, а также организационно-экономические основы вовлечения женщин в экономическую деятельность, связанную с устойчивым развитием. татье исследуются роль и роль женского предпринимательства в инновационном экономическом развитии, а также организационно-экономические основы вовлечения женщин в экономическую деятельность, связанную с устойчивым развитием. В исследовательской работе анализируются вопросы вывода женщин из бедности, широкого вовлечения их в экономическую деятельность, которая является цифровой и экологически устойчивой. В частности, будут рассмотрены механизмы, направленные на развитие предпринимательской деятельности женщин в области возобновляемых источников энергии, безотходных производственных систем, производства экологически чистых продуктов и инновационных бизнес-проектов. частности, будут рассмотрены механизмы, направленные на развитие предпринимательской деятельности женщин в области возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: женское предпринимательство, инновационная экономика, цифровая экономика, экологическая устойчивость, зеленая экономика, экономическая активность, занятость, сокращение бедности.

The article explores the role and role of women's entrepreneurship in the process of innovative economic development, as well as the organizational and economic foundations of their involvement in economic activities related to sustainable development. he article explores the role and role of women's entrepreneurship in the process of innovative economic development, as well as the organizational and economic foundations of their involvement in economic activities related to sustainable development. The research work analyzes the issues of removing women from poverty, involving them extensively in digital and environmentally sustainable economic activities. In particular, mechanisms aimed at developing women's entrepreneurial activities are considered in

renewable energy sources, waste-free production systems, environmentally friendly product production and innovative business projects. Through this, the possibilities of increasing the employment of women, strengthening their economic activity and ensuring socio-economic stability are identified.

Keywords: women's entrepreneurship, innovation economy, digital economy, environmental sustainability, green economy, economic activism, employment, poverty reduction

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyot innovatsion va raqamli transformatsiya jarayonlariga kirib, tadbirkorlik faoliyati shakllanishi va rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim vosita sifatida e‘tiborni qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar o‘z bizneslarini raqamli platformalar, elektron savdo, startaplar va innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirib, kambag‘allikni kamaytirish va turmush farovonligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish milliy iqtisodiy strategiyalarda alohida o‘rin tutadi. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi (2022–2026) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ayollarni kichik va o‘rta biznes, shuningdek yuqori texnologiyali sohalarga jalb qilishni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlarni belgilaydi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ayollarning innovatsion startap loyihalari, onlayn savdo platformalari va raqamli xizmatlarda faol ishtirokini kengaytirish imkonini yaratadi.

Ayollar tadbirkorligi sohasidagi tadqiqotlar global va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Xorijiy tadqiqotlar ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy inklyuziya va kambag‘allikni kamaytirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, World Bank (2021) ayollar tadbirkorligi kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish va daromad manbalarini kengaytirishda muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydi. OECD (2020) tadqiqotida ayollarning startaplar, elektron savdo va raqamli platformalarda ishtiroki, shuningdek gender tengligini ta‘minlashdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan. UN Women (2022) tadqiqotida ayollarning raqamli iqtisodiyotdagi innovatsion loyihalarga integratsiyasi va kambag‘allikni kamaytirishdagi hissi tahlil qilingan [1].

O‘zbek olimlari va milliy statistik manbalar ham ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o‘rganishga e‘tibor qaratgan. Masalan, Sh.M. Karimov (2019) tadqiqotida O‘zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligi asosan kichik va mikrokorxonalarda rivojlanib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishga ta‘siri tahlil qilingan [2]. A.R. Tursunov (2021) ayollar tadbirkorligining raqamli platformalarda, startap loyihalarini amalga oshirishdagi imkoniyatlari va cheklovlarini o‘rganib, davlat siyosatining ahamiyatini ta‘kidlagan [3]. Sh.M. Islomova (2022) o‘z tadqiqotida ayollarning innovatsion iqtisodiyotdagi ishtiroki va ularning kambag‘allikni kamaytirishdagi roli haqida amaliy tavsiyalar bergan [4].

Olimlar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy o‘shish, balki gender tengligini ta‘minlash va ijtimoiy himoya vositasi sifatida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Xorijiy olimlar, masalan V.A. Morozov (2005), ayollar tadbirkorligi jamoalari dastlab davlat korxonalarini transformatsiya qilinayotgan davrda, asosan muhandis-texnik intellektual qatlam tashabbusi bilan shakllanganligini qayd etadi [5]. I.V. Dolgorukova va A.N. Kolesnikov (2008) tadqiqotida ayollar tadbirkorligining o‘ziga xos xususiyatlari va gender farqlari tahlil qilingan [6]. Z.A. Gritsyuk (2010) ish bozoridagi diskriminatsiyaga qaramay, ko‘pchilik ayollar-predprinimatel siyosiy va biznes vakillari tomonidan ishonchsizlikni sezmaydi, deb xulosaga keladi [7].

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni solishtirish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning innovatsion va raqamli iqtisodiyotdagi rolini chuqur o‘rganish hozircha yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot ayollar tadbirkorligining innovatsion va raqamli iqtisodiyotdagi rolini aniqlash va kambag‘allikni kamaytirishga qo‘shayotgan hissasini tahlil qilishni maqsad qilgan.


Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish kabi usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ayollarni innovatsion va raqamli iqtisodiyotga keng jalb

etish, startaplar, elektron savdo va yuqori texnologiyalar sohalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ekologik barqaror iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, “yashil” texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishga oid tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan amaliy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston hukumati ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni biznes faoliyatiga jalb etish bo‘yicha tizimli va keng qamrovli ishlar olib bormoqda. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni va ushbu strategiyani sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish masalasi alohida ta’kidlangan [8]. Ushbu hujjatlarda ayollarga ko‘maklashish tizimini mustahkamlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, milliy va xalqaro tadqiqotlar ham ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish bo‘yicha davlat siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston aholisi tarkibida ayollar va erkaklar soni nisbatan teng taqsimlangan bo‘lib, demografik struktura mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayollar aholi tarkibida sezilarli ulushga ega bo‘lib, ular jamiyatda mehnat resurslari, ijtimoiy hayot va inson kapitalini shakllantirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar soni o‘rtasidagi nisbati hududlar, yosh guruhlari va ijtimoiy vaziyatga qarab farqlanishi mumkin. Demografik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yil holatiga ayollar umumiy aholining 49,7% ini tashkil qilmoqda, ayniqsa mehnatga layoqatli va keksa yosh guruhlari ularning ulushi yuqori bo‘lmoqda [9].

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularning orasida ayollar uchun professional ta’lim dasturlarini tashkil etish, muhtoj ayollarni ish bilan ta’minlaydigan bizneslarni rag‘batlantirish, ayol tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish, “Biznes-ledi” dasturini amalga oshirish, shuningdek, mahallalarda ayollar bandligini ta’minlash va sog‘ligini mustahkamlash markazlarini yaratish kabi tadbirlar mavjud [10]. Ushbu dasturlar asosan ihsiz ayollar uchun yangi hayotiy yo‘nalishlar belgilash yoki tadbirkorlik asoslarini o‘rgatishga qaratilgan.



1-rasm. Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni kishi (2018-2024 yillar)[11]

Hududlardagi ayollar biznes markazlari ayollarga mehnat bozorida yo‘naltirish, qiziqish bildirgan faoliyat sohalarini bo‘yicha ma’lumot berish, malaka oshirish imkoniyatlari bilan tanishtirish kabi yordamlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilik va bir

qator farmonlar hamda qarorlar ayollarni qo‘llab-quvvatlash orqali ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, muammolarini bartaraf etish va farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi. “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi doirasida qabul qilingan ushbu chora-tadbirlar ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan.


2018 yildan 2024 yilgacha respublika bo‘yicha tadbirkor ayollar soni sezilarli darajada o‘sgan. Masalan, 2018 yilda faoliyat yuritayotgan ayollar soni 69 756 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 121 324 kishiga yetgan, ya‘ni 2018 yilga nisbatan 73,7% o‘shish kuzatilgan.

Ushbu o‘shish bir nechta omillar bilan izohlash mumkin:

- Davlat tomonidan ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar;
- Mahalliy va hududiy biznes markazlari orqali ayollarga malaka oshirish, konsultatsiya va moliyaviy yordam ko‘rsatish;
- Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar joriy etilishi, ayollarga o‘z biznesini elektron platformalarda rivojlantirish imkoniyatini yaratdi;
- “Yashil iqtisodiyot” va ijtimoiy tadbirkorlik sohaslarida ayollarning faol ishtiroki, ularning iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi.

2024-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston hududlarida tadbirkor ayollar soni sezilarli farq qiladi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Toshkent shahri va Samarqand viloyatida kuzatiladi: mos ravishda 13 920 va 13 997 ayol tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Bu hududlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan va biznes imkoniyatlari keng bo‘lgan markaziy va shahar hududlari hisoblanadi. Toshkent viloyati va Qashqadaryo viloyati ham ayollar tadbirkorligi bo‘yicha yetakchi hududlardan sanaladi, ular mos ravishda 12 353 va 10 574 nafar ayol tadbirkorga ega. Andijon viloyati va Farg‘ona viloyatida tadbirkor ayollar soni ham sezilarli darajada yuqori — 10 363 va 9 260 kishi. Bu hududlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarining rivojlanishi, shuningdek, mahalliy biznes markazlari faoliyati ayollarning tadbirkorlikka jalb qilinishini rag‘batlantirgan.

Boshqa hududlarda esa tadbirkor ayollar soni nisbatan past. Jumladan, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida ko‘rsatkichlar eng past bo‘lib, bu hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar, ishlab chiqarish tarmoqlari va biznes infratuzilmasi cheklanganligiga bog‘liq. Shuningdek, Jizzax viloyati va Namangan viloyati ham nisbatan past ko‘rsatkichga ega.



2-rasm. Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor ayollar soni, faoliyat turlari bo‘yicha kishi[12]

Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi ayol tadbirkorlarning faoliyat turlari bo‘yicha taqsimoti ularning iqtisodiy faolligi va turmush farovonligiga ta‘sirini ko‘rsatadi. 2024-yil holatiga ko‘ra, ayollarning asosiy qismi chakana savdo va

xizmat ko‘rsatish sohaslarida faoliyat yuritadi. Jumladan, chakana savdo faoliyatida 54 118 nafar ayol tadbirkor ishlamoqda, bu umumiy tadbirkor ayollarning eng katta ulushini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich ayollarning biznesga kirishida eng qulay va boshlang‘ich darajadagi sohalarni tanlashini ifodalaydi. Shuningdek, hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ayollar soni 10 211 kishi, maishiy xizmat sohasida faoliyat yurituvchilar esa 10 769 kishini tashkil etadi. Bu sohalarda ayollarning faol ishtiroki ularning oilaviy daromad manbalarini yaratish, mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bundan tashqari, boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi 46 226 nafar ayol tadbirkor mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich ayollarning iqtisodiyotning turli sohaslariga, jumladan xizmat ko‘rsatish, kichik sanoat va innovatsion biznesga faol kirib borayotganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ushbu ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi asosan kichik biznes va xizmat tarmoqlariga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy yordam va malaka oshirish dasturlari orqali ayollar tadbirkorligini diversifikatsiya qilish va yangi sohalarga kengaytirish imkoniyati mavjud. Bu esa nafaqat ayollarning iqtisodiy faolligini oshiradi, balki ularning turmush farovonligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Tadbirkorlik ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda ayol tadbirkorlar soni izchil o‘sib, ayniqsa chakana savdo, xizmat ko‘rsatish va hunarmandchilik sohaslarida faoliyat yuritmoqda. Bu holat ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Past ko‘rsatkichli hududlarda ayollar tadbirkorligini oshirish maqsadida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va hududiy biznes-markazlar orqali rag‘batlantirish choralari kuchaytirilishi lozim.

2. Ayollarni innovatsion va raqamli iqtisodiyot sohaslariga jalb etish, elektron tijorat va startap loyihalarini rivojlantirish uchun maxsus treninglar va onlayn platformalar tashkil etilishi zarur.

3. Ayollarga biznes, menejment, marketing va moliya bo‘yicha professional ta‘lim va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shu jumladan hududiy markazlarda seminar va treninglarni kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning turmush farovonligini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va innovatsion iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UN Women. Women’s Economic Empowerment in the Digital Age. New York: UN Women, 2022.
2. Karimov Sh.M. Ayollar tadbirkorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. T.: Tashkent, 2019.
3. Tursunov A.R. Raqamli iqtisodiyotda ayollar tadbirkorligining imkoniyatlari va cheklovlari. T.: Tashkent, 2021.
4. Islomova Sh.M. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar tadbirkorligining roli. T.: Tashkent, 2022.
5. Morozov V.A. Women Entrepreneurs in Post-Soviet Business Environment. Moscow, 2005.
6. Dolgorukova I.V., Kolesnikov A.N. Gender Features of Women Entrepreneurship. St. Petersburg, 2008.
7. Gritsyuk Z.A. Women Entrepreneurs and Labor Market Discrimination. Moscow, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi. ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-sonli qarori.
9. Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida aholi demografik tarkibi bo‘yicha yillik hisobot. T.: 2024.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida” Farmon. T.: 2023.
11. Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumoti asosida muallif ishlanmasi
12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumoti asosida muallif ishlanmasi